

## **TILSHUNOSLIKDA MILLIY, MADANIY VA LISONIY DUNYOQARASH NAZARIYALARI.**

***Dexqonova Muattar Ilxomovna***

*Angren universiteti katta o'qituvchisi*

*[Email.muattardehkhonova1989gmail.com](mailto:muattardehkhonova1989@gmail.com)*

Insonni o'rab turgan tashqi olam haqidagi dunyoqarashni uch shaklda tasvirlash mumkin: real olam; madaniy (konseptual, tushunchaviy) dunyoqarash; lisoniy dunyoqarash. Real olam deganda insonga bog'lik bo'lmagan xolda mavjud bo'lgan obyektiv xaqiqat, uni urab turgan muxit (borlik)ni tushunamiz. Madaniy (konseptual, tushunchaviy) dunyoqarash xam jamoaviy, xam shaxsiy tajribalar asosida inson olamni tushunishi jarayonida uning ongida shakllangan, tushunchalar orqali paydo bo'ladigan real olamning ifodasi tushuniladi. Madaniy dunyoqarash xar xil xalqda xar xil bo'ladi. Bu bir kator omillarga bog'liq bo'ladi, jumladan, jutrofiya, iqlim, tabiiy sharoitlar, tarix, ijtimoiy sharoitlar, din, an'ana, xayot tarzi va boshqalar.

Madaniy va lisoniy dunyoqarash xar xil xalqda xar xil bo'ladi. Madaniy va lisoniy nazariyalarini tilshunos olimlar qator asarlarida, shu jumladan ingliz tilining lug'ati tarkibi: Ontologiya va Evristika masallari hozirgi bag'ishlangan monografik asarlarda leksikaga asoslangan tajribalar orqali isbotlab kuyidagicha tarzda amalga oshirganlar: birinchi guruh so'zlari uchun ta'riflar (definitsiyalar) "Oxford Advanced Leamer's Dictionary" lug'atidan tanlab olingan. Ta'riflar aniq ketma-ketlikda joylashtirilgan: avvalambor, eng "oddiy", keng tarqalgan, inson o'zining kundalik xayotida tez-tez duch kelib koladigan tushunchalarni ifoda etadigan ta'riflar joylashtirilgan. Ularga kuyidagilar kiritilishi mumkin:

Container made of flexible material (paper, cloth, leather) with an opening at the top, used for carrying things from place to place. Part of house or other buildings

enclosed by walls, partitions, floor and ceiling. Opening in a wall or roof of a building, the side of ship, car, etc. to let in the light and air.

Bu kabi ta'riflar orasida nafaqat Buyuk Britaniya yashovchisiga, balki umuman o'rta Yevropalik va Osiyoliklarga xam yaxshi tanish bo'lgan tushunchalar mavjud.

Talabalarga bu ta'riflar tegishli bo'lgan so'zlarni topish, albatta, xech qanday qiyinchilik tug'dirmagan. Tabiiyki, bag, room, window so'zlarida aks etgan tushunchalar xam inglizlarning, xam rus va o'zbeklarning "tushunchaviy dunyoqarashi"ga kiradi. Keyingi guruxda mavhum otlarni ifodalaydigan tushunchalarga ta'rif berilgan. Misol uchun:

Affectionate and tender devotion;

The feeling or relationship that exist between friends.

Feeling of expectation and desire.

Bu kabi ta'riflarni ham love, friendship, hope so'zlariga bog'lashda talabalarga xech qanday qiyinchilikka duch kelmagan. Yana bir ta'riflarni o'ziga xos bo'lib, bu tushunchalarni barcha Yevropa xalqlari uchun aniq shakllangan deb bo'lmaydi:

Collectible items of antique or by gone kitchen equipment. A building or other structure offensive to the sight; an architectural eyesore. A person who is obsessively interested in interior decoration, and compulsively redecorates his or her house.

Kutilganidek, talabalar bu ta'riflar tegishli bo'lgan topa olmagan (yani, ta'riflarni kitchenalia, carbuncle, deccie so'zlari bilan moslashtira olmagan) Ta'kidlash joizki, oxirigi gurux ta'riflari talabalarga tug'dirganining sababai, bu guruxdan o'rin olgan ta'riflar tegishli bo'lgan tushunchalar tajriba qatnashuvchilarining "tushunchaviy dunyoqarashida" mavjud emas. Demak, o'zining tushunchaviy dunyoqarashida mavjud bo'lmagan tushunchani xych bir inson birinchi urinishdanok anglab topishga kodir emas. Bu kabi so'zlarni o'zining lisoniy dunyoqarashiga kiritish uchun inson, avvalambor, so'zlar ifodalaydigan tushunchalarni o'z tafakkurida kabo'l kilishi

lozim. Chet tillarni o'qitish jarayonida tushunchaviy va lisoniy dunyoqarashning o'zaro ta'siri va bog'liqligiga aloxida e'tibor qaratish kerakligini yana bir bor isbotlash maqsadida biz olib borgan tadqiqot jarayonida ham psixosotsiokulturologik tajriba o'tkazildi. Yuqoridagilardan kelib chiqadigan bo'lsak, lisoniy dunyoqarash xaqiqatni madaniy dunyoqarash orqali aks ettiradi. Til o'ziga bo'ysundiradi va unda so'zlovchilarga olamni tushunish jarayonini tashkillashtiradi. Bu dunyoqarash madaniy dunyoqarash bilan chambarchas bog'liq va u bilan o'zilmas o'zaro munosabatda bo'ladi. Madaniy (konseptual, tushunchaviy) va lisoniy dunyoqarash masalasi juda murakkab va ko'p qirralidir. Uning mohiyati til xamda madaniyat borasidagi yechib bo'lmaydigan muammolarga yetaklaydi. "Текст как явление культуры" kitobida kuyidagi fikr bayon kilingan: "Dunyo xalqlari tillarining o'ziga xos milliy xususiyatlarga ega ekani xaqidagi g'oyalar XVIII asr oxiri va XIX asr boshlarida nemis tilshunosligi vakillari Mixaelis, Gerder, Gumboldt asarlarida yuzaga keldi. Gap shundaki, birinchidan, til ideal tarzda tashkil qilingan murakkab, strukturaga ega bo'lgan tizim sifatida unda so'zlashuvchilarning real dunyoni bilishini ta'minlaydi (amalga oshiradi, tashkil qiladi) va bu jarayonni o'ziga bo'ysundirib uni boshqaradi; ikkinchidan, til o'zining sof ma'nosi (va mazmuni) ga ega bo'lgan tizim sifatida o'z dunyosiga egadir va bu dunyo go'yo xaqiqiy dunyo (real borliq)ga ilova qilinganday tuyuladi". Bu soxaning yetuk mutaxassislaridan Ye.S. Yakovleva lisoniy dunyoqarashga bunday deb tavsif beradi: "Lisoniy dunyoqarash bu til orqali dunyoni o'ziga xos tushunish, atrof muxit xaqida ma'lumotni mujassamlashtirgan til vositalarining ijtimoiy mohiyatli tizimidir.

### **Adabiyotlar ro'yxati**

1. Абдулазизов А.А. Тилшуносликнинг бошқа фанлар билан алоқаси. Т.: Фан. 2004, 240 б.
2. Августин. А Исповедь. М., 1991.

3. Anderson J.M. Linguistic representation. Structural analogy and stratification. Brl.: Mauton de gruyter, 1992.
4. Andrews A.D. Lexical structure // Linguistics : The Cambridge Survey. Vol 1. Cambridge (Mass), 1998. P. 60-88.
5. Алефиренко.Н.Ф. Лингвокультурология: целостно-смысловое пространство языка [Текст] / Н.Ф.Алефиренко. — Москва: Флинта, Наука, 2010. — 288 с.
6. Арутюнова Н.Д. Язык и мир человека. М. Языка славянской культуры. 2000, с. 980.
7. Арутюнова Н.Д. Типы языковых значений. Оценка. Событие. Факт. М. 1988.
8. Baker E. Predicate-argument structure as a link between linguistic and non-linguistic representations // Brian and language. 1990. Vol.39. p/391-404.